XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-dekabr VII-22-145-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Oqdaryo tumanining 2025-yil IV chorak mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining yigirma ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 1 309 480,0 (bir milliard uch yuz to‘qqiz million to‘rt yuz sakson) ming.so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-023-7-92-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 10-bandlari tuman mahalliy byudjeti hisobidan Oqdaryo tuman mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlarini 1 309 480,0 (bir milliard uch yuz to‘qqiz million to‘rt yuz sakson) ming.so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (N.Ismoilov)ga Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Rabbanaqulov) va tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi:Qudratov Sherzod Asadovich

QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-22-145-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-023-7-92-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming.so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kir-itiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 606 000	1 309 480	19 915 480

b) Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-023-7-92-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 10-bandi “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming.so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kir-itiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 952 000	1 309 480	3 261 480